

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TDShU huzuridagi "Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti" NNT

AXBOROT XATI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2023-yil 18-noyabr kuni “O'zbekiston-Xitoy: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi.

Konferensiya shakli: gibrild formatda.

Anjuman maqsadi va vazifalari:

- O'zbekiston va Xitoyda fan va ta'lismizda innovatsiyalar va yangi ishlanmalar sohasida tajriba almashish;
- Filologiya, falsafa, tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, lingvokulturologiya, sinologiya sohalarida tarjima nazariyasi va amaliyoti muammolari bo'yicha fikr almashish;
- O'zbekiston va Xitoy o'rtaqidagi ilmiy sohada xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirishga zamin yaratish;
- O'zbekiston va Xitoy o'rtaqidagi istiqbolli aloqalarni o'rganish, bu boradagi amaliy takliflar kiritish;
- Sinologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, yosh olimlarning malakasini oshirish;
- Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari bo'yicha hamkorlik sohasidagi ilmiy mavzularni, shuningdek xalqaro miqyosdagi yangi ilmiy loyihalar bo'yicha takliflar kiritish.

Anjuman quyidagi bo'limlarda o'tkaziladi:

1. Tilshunoslik va o'qitishning innovatsion usullari.
2. Tarix, falsafa va madaniyat.
3. Tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik.
4. Iqtisodiyot sohadagi munosabatlarning yangi istiqbollari.

Konferensiya materiallari quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- Hozirgi xitoy tili va tilshunoslige oid ilmiy va amaliy masalalar;
- Xitoy tilini o'qitishning innovatsion metodlari;
- Lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspektlar tadqiqining bugungi holati va istiqboli;
- Globalizatsiya sharoitida xitoy tilini o'rganish hamda tadqiq etish yo'nalishlari;
- O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtaqidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlikning bugungi holati va istiqboli;
- O'zbekiston-Xitoy savdo va iqtisodiy aloqalari: tajriba va muammolar;
- Xitoy investitsiyalarini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilish masalalari: loyihalar, muammolar, rejalar;
- Markaziy Osiyo xalqlari tarixinining xitoy manbalari asosida yoritilishi;
- Konfutsiy ta'lomi va hozirgi zamон;
- Xitoy falsafasi masalalari;

- O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini xitoy tiliga va Xitoy mumtoz adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjima masalalari;
- XXRdagi iqtisodiy jarayonlarning xalqaro, shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta’siri;
- O‘zbekiston Respublikasi va XXR madaniy va gumanitar sohalardagi hamkorligi masalalari.

Konferensiya materiallari alohida to‘plamda chop etiladi.

Maqola shakllantirish qoidalari

Konferentsiyada ishtirok etish uchun arizani to‘ldirishingiz lozim (1-ilovaga qarang).

Maqolaning elektron versiyasi **Microsoft Word** formatida bo‘lishi kerak. Fayl nomlari lotin tilida sarlavhada birinchi muallifning ismi bilan yoziladi. Masalan, **Karimov_A_maqola**.

Barcha tezislар quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: annotatsiya, kalit so‘zlar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Maqolalar 3-5 bet hajmda elektron shaklda topshirilishi kerak. Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, xitoy tillarida bo‘lishi mumkin. Maqola matni **Times New Roman 14 pt** (satr oralig‘i - 1,5) shriftida avtomatik defis bilan terilgan. Matnni asoslash, birinchi qatorning chekinishi hamma joyda doimiy, 1,25 sm ga teng. Sahifadagi matn chetlari chapda 30 mm, o‘ngda 15 mm, yuqorida va pastda 25 mm. Sahifalar raqamlanmagan.

Varaqning o‘rtasida katta harflar bilan (qalin shriftda) maqolaning sarlavhasi yoziladi va markazlashtirish bosiladi (so‘z bo‘g‘inga ajratib ko‘chirilmasin). O‘rtadagi bir intervaldan keyin muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi (kursivda). Familiyadan keyin ilmiy daraja va lavozim bir intervalda ko‘rsatiladi. Keyingi intervalda, chap tomonda tekislash bilan, kursivda, tashkilotning to‘liq nomi , keyin muallifning elektron pochta manzili ko‘rsatiladi.

Qator orqali - **annotatsiya (5-7 qator), kalit so‘zlar - kursivda 8-12 so‘z;** bir qatordan keyin ingliz tilida ma‘lumotlar beriladi. Keyingi qatordan maqola matni, maqolaning oxirida **foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** bitta interval bilan beriladi. Matndagi iqtiboslar kvadrat qavs ichida quyidagicha yoziladi: [Elmurodov 2017:15]; adabiyotlar ro‘yxati matn so‘ngida “Adabiyotlar” yozuvni ostida alfavit tartibida joylashtiriladi.

Maqola matni tahrirlangan bo‘lishi va ilmiy maqolalar shakli barcha talablarga javob berishi kerak. Maqolaning matni plagiatga qarshi tekshiruvidan o‘tkaziladi.

Talablarga javob bermaydigan ilmiy maqolalar konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilmaydi.

Konferensiya materiallari to‘plami konferensiya kuni elektron shaklda taqdim etiladi.

Anjumanda ishtirok etish uchun **arizalar 15 sentyabrgacha** qabul qilinadi

Maqolalar 2023-yil 15-oktabrgacha qabul qilinadi

DOI raqamga ega anjuman materiallari to‘plami har bir ishtirokchiga elektron shaklda (PDF variantda) yuboriladi va o‘z tezislari bilan qatnashgan ishtirokchilar elektron sertifikat bilan taqdirlanishadi. Maqola chop etish bepul. Yo‘l va turar joy xarajatlari tashkiliy qo‘mita tomonidan qoplanmaydi.

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasining manzili:

Toshkent, st. A. Temur, 20. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoysenoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrasи

Tel.: +998998394305 Bobojonova Feruza

Elektron pochta: conferencechinauzbek@gmail.com

Telegram kanali: <https://t.me/conferencechinauzbek>

Maqolani rasmiylashtirish namunasi

IYEROGLIF YOZISHDAGI TUSHUNCHA VA ASSOTSIATIV BOSHLANISHNING MUNOSABATI (“Quyosh” 𩚛 iyeroglifi misolida)

СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В
ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (НА ПРИМЕРЕ ИЕРОГЛИФА 𩚛 «СОЛНЦЕ»)

*Karimov Akramjan Abilevich
Filologiya fanlari nomzodi, professor
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Karimov_a@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada iyeroglif yozuvining nazariy masalalari ko‘rib chiqiladi. Jumladan, iyeroglif yozuvidagi konseptual va assotsiativ tamoyillar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi. Ma’lumki, bir qator Uzoq Sharq tillari iyeroglif yozuvidan foydalangan yoki hozir ham foydalanmoqda. Shu munosabat bilan iyerogliflar orqali uzatiladigan ma’nuning aloqa nuqtasini va ularning yangi iyerogliflarni yaratishda keyingi ishtirokini aniqlashtirish zarurati tug‘iladi.

Kalit so‘zlar: Iyeroglif yozuv, ՚sun, tushuncha, assotsiatsiya, iyeroglif yozuvning 6 toifasi, boshlang‘ich va ortma ma’no, qo’shma belgi, qo’shma so‘z.

RELATIONSHIP OF CONCEPT AND ASSOCIATIVE BEGINNING IN HIEROGLYPHIC WRITING (BY THE EXAMPLE OF THE HIEROGLYPH 𩚛 “SUN”)

*Karimov Akramjan Abilevich
Candidate of Philological Sciences, Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Karimov_a@gmail.com*

Annotation. This article considers the theoretical issues of hieroglyphic writing. In particular, the question of the relationship between the conceptual and associative

principles in hieroglyphic writing. It is known that a number of Far Eastern languages used or still use hieroglyphic writing. In this regard, there is a need to clarify the point of contact of the transmitted meaning by hieroglyphs and their further participation in the creation of new hieroglyphs.

Key words: Hieroglyphic writing, *↗ ri sun*, concept, association, 6 categories of hieroglyphic writing, primordial and acquired meaning, compound character, compound word.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов А.А. Выявление исконных и приобретенных значений иероглифов 念, 讀, 看(сравнительный анализ японского и китайского языков).// Материалы международной конференции по японоведению. Цукуба .Ташкент., - 2020.

1-ilova.

Ishtirok etish uchun ariza

F.I.Sh.	Ishtirok etish tili
(lotin alifbosida yozing)	
Ish joyi va lavozimi	
Kerakligini tanlang va belgi qo‘ying()	
() Men ishtirok etaman va prezentatsiya qilaman; () oflayn ishtirok etaman; () onlayn ishtirok etaman;	
() Men faqat konferentsiyada ishtirok eteman.	
() Faqat maqola yuboraman.	
Maqola mavzusi: _____	
Ma’ruza mavzusi qaysi ilmiy y ‘nalishga mos keladi. Kerakli bo’limni tanlang. (Madaniyat va til / adabiyot / Siyosat va iqtisodiyot / Tarix / fanlararo fanlar,	

falsafa)

() ()

Nutq tili

To'plamda e'lon qilinadigan maqola tili.

E-mail:

Telefon raqami:

Просим подать заявку в орг. комитета до **15 - сентября 2023 года.**

Контактное лицо: Бобожонова Феруза

Тел.: +998998394305 Бобожонова Феруза

E-mail: conferencechinauzbek@gmail.com

Телеграм канал: <https://t.me/conferencechinauzbek>